

Antimikrob plastiklar bozori 2035-yilga kelib ikki baravar o'sishi mumkin

// 17.04.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/antimikrob-plastiklar-bozori-2035-yilga-kelib-ikki-baravar-o>



2024-yil natijalariga ko'ra, mikroblarga qarshi xususiyatlarga ega plastiklar bozori 42,2 milliard dollarga baholandi. 2035-yilga kelib uning hajmi ikki baravardan oshib, 90,6 milliard dollarga yetishi mumkin.

Bu haqda Global Banking & Finance Review portali xabar berdi.

Basf (Germaniya), Avient Corporation (AQSH), Clariant (Shveysariya), Exel Composites (Finlyandiya) va boshqa shu kabi ishlab chiqaruvchilar bozor o'sishining drayverlari sifatida maydonga chiqmoqda.

Amerikaning Microban International kompaniyasi PVX, PU va EVA ga zamburug'larga qarshi xususiyatlarni qo'shdi. Texnologiya zamburug'larning tarqalishini oldini olish orqali mahsulotlarning ishlash muddatini uzaytiradi.

Bunday materiallarga sog'liqni saqlash, qadoqlash, iste'mol tovarlari va sanoat ishlab chiqarishida talab mavjud.

Sohadagi bu kabi ishlanmalar plastiklarning ekspluatatsiya xususiyatlarini saqlab qolgan holda himoya xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati